

OILALAR YOSHLAR VA BOLALAR O'RTASIDA IJTIMOIIY ISHNI RIVOJLANISHI

XO'JANOVA GULSUN FARXOD QIZI
QAYUMOVA DURDONA ABDUHALIM QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogik instituti
Pedagogika fakulteti Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi
12-guruh talabalari

Annotasiya: Bola jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatadi, bolani hayot qaynagan, gavjum shaxarda rivojlanish tajribasi qishloq hududlarida ulg'aygan bolaning rivojlanishidan farq qiladi. Bola qanchalik yaxshi o'sayotganligi va rivojlanayotganligini aniqlash uchun qanday usullardan foydalanish zarurligi aniqlanadi va shu bilan birga o'sish va rivojlanishning muhim bosqichlari rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan me'zonlar yordamida belgilangan.

Kalit so'zlar: oila, shavqatsiz munosabat, oilaviy terapiya, oilani ijtimoiy himoya qilish, yoshlar bilan ijtimoiy ish olib borish, bolalar ehtiyojlarini o'rganish

Аннотация: Ребёнок, его взаимоотношения в обществе и факторы, влияющие на его развитие, зависят от среды, в которой он растёт. Опыт развития ребёнка, выросшего в шумном, многолюдном городе отличается от опыта ребёнка, выросшего в сельской местности. В работе определяется и какие методы необходимо использовать для точного выявления уровня его развития. Также представлены важные этапы определены с помощью соответствующих критериев, связанных с процессами развития.

Ключевые слова: семья, жестокое обращение, семейная терапия, социальная защита семьи, социальная работа с молодёжью, изучение потребностей детей.

Annotation: A child's interactions within society and the factors influencing their development in which they grow up. The developmental experience of a child raised in a busy, crowded city differs from that of a child raised in a rural area. This

work identifies how well the child is developing and determines which methods should be used to accurately assess their level of development. It also outlines the important stages of a child's growth and development, defined with the help of criteria related to developmental processes.

Keywords: family, ill-treatment, family therapy, social protection of the family, social work with youth, studying children's needs.

Kirish.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar 8 million nafarni tashkil etadi, bu esa mamlakatning butun axolisini 27% ni tashkil etadi. Billalardan iborat aholining bu kabi ahamiyatli ravishdagi solishtirma og'irligi jamiyatning demografik tuzilmasida bollarni ijtimoiy himoya qilish muomolari, ular ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va zarur yordam ko'rsatish muhim ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega. Bola bilan ayni vaqtda nima sodir bo'layotganligini baholashda bola rivojlanishining barcha jihatlarini yoshga oid o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda baholash talab etiladi. Bollalar tabiiyki, o'z muhitlarida faol bo'lishga moil va yangi ko'nikmalarni egallashga harakat qiladilar. Shu sababli, rivojlanish jarayoni ularni ichki tomonidan rag'batlanirishi bilan bir qatorda unga tashqi muhit xam o'z ta'sirini o'tkazadi. Qisqa qilib aytganda, bolaning qanday rivojlanishi qisman tashqi omillarning ta'siriga ham bog'liq. Bola, odamlar va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, masalan, bolaning hayot qaynagan, gavjum shaxarlarda rivojlanish tajribasi qishloq hududlarida ulg'aygan bolaning rivojlanishidan farq qiladi. Dunyoning turli qismlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bollalar yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun ularning rivojlanishining turli sohalarida va turli bosqichlarida erishishlari lozim bo'lgan vazifalarni aniqlash imkonini beradi. Bolalarni hayotida ijtimoiy ta'minot ham alohida o'ringa ega. Bola tomonidan tashqi ko'rinish, hulq yoki kamchiliklar tashqi dunyo tomonidan qanday qabul qilinishi va anglash ko'nikmasining o'sib borishini e'tiborga oladi. Yoshi jinsi madaniyat va dinda, tozalik va shaxsiy gigiyena mosligi, ota-ona yoki ularni o'rnini bosuvchi odamlarning to'g'ri yo'l ko'rsatishi qamrab

oladi. Bollalar o'rtasida har xil muxitga sharoitga moslasha olmaganlari xam uchrab turadi, Moslasha olmagan bollalarsirasiga bugungi kunda nazoratsiz bolalar, ya'ni ota ona nazorati e'tibor va parvarishsiz ,kattalar tomonidan ijobiy ta'sirsiz qolgan bollarni kiritish mumkin.

Bola ustidan aniq yoki jismoniy zararga olib keluvchi jismoniy zo'ravonlik, nazorat qiluvchi ota ona yoki bola uchun javobgar bo'lgan yoki bola unga ishonib topshirilgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarning yetarli emasligi sababli vujudga kelishi mumkin. Jismoniy zo'ravonlikka zarba berish, silkitish, otib yuborish, zaharlash, yoqib yuborish, yoki qaynoq suvda kuydirish cho'ktirish yoki bo'g'ishni kiritish mumkin. Ijtimoiy ish nafaqat bollalar balki oilalarda ham alohida o'ringa ega. Ijtimoiy ishda dunyo va mamlakatimiz madaniyatida oilaning dunyo bilan o'zaro munosabatlar sohasida boy tajriba to'plagan Xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ta'kidlashicha, ijtimoiy terapiyaning asosi barcha azoblanuvchi , kamsitilgan, to'laqon ijodiy hayot chegarasidan uloqtirilib yuborilganlarga yordam ko'rsatishning yaratuvchanlik jarayoni hisoblanadi. Har qanday odam duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar, odatda oila ichidagi dinamika ta'siri ostida sodir bo'ladi. Oila qay tarzda o'zaro munosabat tizimi ekanligiga qarab, uning bitta a'zosidagi o'zgarishlar uning boshqa a'zolariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy xodimlar odamlarga shaxsiy yoki ijtimoiy muomolarini hal etishda yordam ko'rsatadi.

Xulosa

Ijtimoiy ish har joyda oilalar, yoshlar hayotida ,bolalar hayotida xullas xar joyda biz uchun muhim kasbiy faoliyat ekan. Yosh oilalar bilan ish olib borish va ularning mavjud muammolarini hal etishda, O'zbekistonda yangi bo'lgan ,biroq oxirgi yillarda jadal rivojlanib borayotgan kasbiy faoliyat -ijtimoiy ish muhim o'rin tutadi. Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy ustuvor yo'nalishlari orasida mamlakatimiz olimlari bola huquq va manfaatlari ekanini alohida ta'kidlaydilar: oiladagi vaziyatni ijtimoiy xizmatlar tomonidan malakali va obyektiv baholash: bolalar ustidan zo'ravonlik qilish holatlari kuzatilmaganida ijtimoiy xodimlar tomonidan maxfiylikka amal qilish: oiladagi nomaqbul omillarni qayd qilish kerkligini aniqlab yetdim

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ijtimoiy ishga kirish “MALIK PIRINT CO” Toshkent -2021 M.X.Ganiyeva,Q.N.Kayumov,M.B.Sherov.
2. Mirziyoyev.Sh.M.O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishidan ma’ruza 2018-yil 8-dekabr
3. Yusupov R.K Ijtimoiy ishga kirish. O‘quv qo‘llanma– Samarqand : SamDU nashri, 2020. – 260 bet.
4. N.M.Latipova, Q.N.Kayumov. “Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari”. —T.: “Innovatsion rivojlanish nashiyot — matbaa uyi”. 2021. - 324 bet
6. F.D.Muzaffarov, X.R.Nafiddinova. Ijtimoiy ish tarixi. Toshkent. 2023. -164 b.